

BADIIY MATNING IZOHLI HODISASI: AGNONIMLAR HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5856194>

Nargiza Mardonovna Suleymanova

PhD, SamDCHTI dotsenti,

Akbar Rustam o'g'li Idiyev

SamDCHTI “Ingliz filologiyasi” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning ijtimoiylashuvi, uning fiziologik jihati va fiziologiyasi jarayonida kechadigan o'zgarishlar, qolaversa, tilshunoslikda yangi tushuncha hisoblangan “agnonimlar” atamasi va agnonimlarning leksikasi haqida o'zbek va jahon tilshunoslari fikrlari tahlil qilinadi. Maqolada agnonimlar haqida sharq va g'arb tilshunoslarining fikrlari tahlili bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Agnonim, ijtimoiy, fiziologiya, ichki manba, tashqi manba, nominatsiya, leksik birlik, frazeologik birlik, arxaizmlar, agnostisizm, agnostiklar, lingvistika, leksikologiya, dialektologiya, frazeologiya, morfologiya, stilistika, folklorshunoslik.

Abstract: The article analyzes the socialization of language, its physiological aspects and changes in the process of physiology, as well as the views of Uzbek and world linguists on the term "agnonyms" and the lexicon of agonyms, which is a new concept in linguistics.

The article also examines the views of Eastern and Western linguists on agnonyms.

Key words: Agnonym, social, physiology, inner source, outer source, nomination, lexicological aspect, phraseological aspect, archaism, agnostics, linguistics, lexicology, dialectology, phraseology, morphology, stylistics, folklore studies.

KIRISH

Ma'lumki, biz tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilamiz. Bunga asos, tilning ijtimoiylashuvi bevosita uning fiziologiyasi bilan bog'liq hisoblanadi. Avvalo, “ijtimoiylik” terminiga izoh beraylik. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “ijtimoiy” atamasiga “inson va jamiyat hayotiga oid” [1] deya ta'rif berilgan. Ijtimoiylik deganda esa insoniyat va jamiyat orasidagi voqelik nazarda tutiladi. Shunday ekan, til jamiyat ichida vujudga keladi, taraqqiy topadi, qolaversa, yo'qolib borishi ham mumkin. Vaqt o'tishi bilan tilning lug'at tarkibidagi bir guruh so'zlar iste'mol doirasidan chiqib ketadi, uning o'rniga

boshqa so'zlar tushunchasini ifodalovchi birliklar kirib keladi yoki umuman bu so'zlarga aloqasi bo'lmagan so'zlar guruhi yuzaga keladi. Chunonchi, istorizmlar, arxaizmlar, neologizmlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Tilning ichki va tashqi manbalar ta'sirida boyish hodisasi natijasida yangi so'zlar jamiyatga kirib keladi, yoki aksincha, ba'zi so'zlar jamiyat iste'molidan chiqib ketishi ham mumkin. Ayni shu o'zgarishlar natijasida ba'zi so'zlar aynan ma'lum bir qatlam iste'molidagina saqlanib qolishi mumkin. Rus tilshunoslari ma'nolari ko'pchilikka, yoki aniq bo'lgan individlar guruhiga butunlay noma'lum, yoki qisman ma'lum; tushunarsiz, notanish bo'lgan so'zlarni “agnonimlar” deya ataluvchi termin ostida birlashtirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Rus tilshunosligi tadqiqotchilari V.V.Morkovkin, A.V.Morkovkinalar agnonimlar tadqiqi ustida ishlagan. O'zbek tilshunosligida esa ushbu atama M.Yo'ldoshevning ilmiy ishida uchraydi. “Agnonim” atamasi yunonchadan, “noma'lum”, “bilinmagan” ma'nolarini anglatadi.

V.V.Morkovkin, A.V.Morkovkinalar o'z tadqiqotida agnonimlarni “Biz ma'nolarini bilmagan so'zlar” deya ta'rif etib, ularni aniq ma'nosi bo'lmagan, yoki kontekstdan anglashiladigan, ma'lum bir guruhga-gina nominatsiyasi tushunarli bo'lgan leksik va frazeologik birliklar deb yuritadi[7].

Filologiya fanlari doktori M.Yo'ldoshev “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida, “Agnonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi” maqolasida ushbu hodisaga batafsil to'xtalib, quyidagicha munosabat bildiradi: “Ta'kidlamoq lozimki, agnonimlarni so'zning leksik-semantik mohiyatiga daxldor obyektiv hodisa sifatida emas, balki so'zni idrok etish bilan bog'liq subyektiv hodisa sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi. Bu hodisani tildagi omonim, paronim, antonim, sinonim kabi so'z guruhlari qatorida emas, balki tildan foydalanuvchining lisoniy-idrok layoqati bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganish mumkin. Agnonimlarga *tulup, to'ra, to'qoch, to'rsuq, yalavoch, badarg'a, mahak, misqol, zahm, zifof, zaqqum* kabi eskirgan so'zlar; *yitmoq, koriz, kayvoni, kebanak, moshoba, mita, sug'ur, suq, so'mtemir, tarrak, tirkash, uypang, ulton, chigiling, chiyki, chumsoh, shirinkoma, qoruv, qoqimchi, qurdosh* kabi iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar; ayrim soha vakillarigagina ma'lum bo'lgani holda, ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan *ataraksiya, anamnesis, animizm, glottogenez* kabi terminlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin”. [2]

Yuqoridagi mulohazadan shu narsani anglash mumkinki, agnonimlar o'z ichiga eskirgan so'zlar, kasb-hunarga oid bo'lgan faqat ma'lum auditoriyagagina tushunarli bo'lgan so'zlar, shuningdek turli terminlarni o'z ichiga oladi. Fikrlardan shu narsa ham anglashilishi mumkinki, shevaga oid

bo'lgan ba'zi so'zlarni ham agnonimlar sirasiga kiritsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, shevaga oid ba'zi so'zlar iste'moli doirasi chegaralangan. Ma'lum bir hududga-gina tushunarli bo'lgan ushbu so'zlarga *shaloq, inak, shoti, takya* kabilarni ham misol qilish mumkin.

M.Yo'ldoshevning “Agnonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi” maqolasiga ko'ra, ushbu atama qaysidir ma'noda agnostitsizm deb ataluvchi falsafiy ta'limot bilan ham aloqadordir [3]. Agnostiklarning fikriga ko'ra, zamon va inson aql-u shuuri qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa-da, borliq qanchalik cheksiz bo'lsa-da, bizning idrokimiz uning ma'lum bir qismini-gina analiz qilishga qodir. Agnostiklar “dunyoni bir butunlikda bilib bo'lmaydi, bir qismini-gina bilish mumkin” [4] deyishadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday ekan, ayni agnostitsizm va filshunoslikdagi agnonimlar o'rtasida uzviylik bor.

Masalan, *ro'dapo* so'zini olsak, o'z ma'nosi bugungi kunda ijtimoiy iste'molda uchramaydigan ushbu so'zning nominatsiyasi bugungi kunda ko'chma ma'noda bichimi kelishmagan, yoki yarashmagan yopinchiq tarzida tushuniladi. O'z ma'nosi esa, “O'zbek tilining izohli lug'ati”ga ko'ra, ichaksimon oyoqlari bo'lgan bahaybat maxluq, sakkizoyoq, so'rg'ichli katta paypaslagichi bo'lgan dengiz hayvoni [5]. Ko'rinadiki, ro'daponing aslida dengiz jonivori ekanligini hatto aynan zoologiya sohasidagilarning ham ko'pchiligi bilmasa ajab emas. Ushbu misoldan shunday xulosaga kelish mumkinki, agnonimlarning yana bir turi, asl ma'nosini yo'qotgan, yoki kam ishlatiladigan, yohud asl ma'nosi aynan ma'lum kishilarga-gina tushunarli bo'lgan, jamiyatdagi insonlar esa uning ko'chma ma'nolarini tushunishidir. Bu kabi misollarga yana ko'plab so'zlarni keltirib o'tish mumkin.

Yana bir misol tariqasida *mundi* so'zini olsak. Aslida arxaik bo'lgan ushbu so'zning o'z davridagi ma'nosi o'choqda suv isitish uchun ishlatiladigan qora qumg'onga o'xshagan idish. Lekin bugungi kunda ba'zi hududlar lisonida ushbu so'z bir chekkada tortinib, uyalib turuvchi; yoki jussasi kichik, qorachadan kelgan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Iste'moli doirasi cheklangan bo'lgan ushbu so'zni ham agnonimlarning shu turiga kiritsak bo'ladi.

Hakalak so'zi ta'rifiga e'tibor beramiz. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da hakalakning o'z ma'nosi “bir oyog'i yo'q”, yoki “yerga chizilgan kataklar bo'ylab bir oyoqlab sakrab o'ynaladigan bolalar o'yini” [6] deya izohlangan. Lekin bugungi kunda biz hakalak so'zining ibora tarkibida kelgan ko'chma ma'nosini tushunamiz. *Nafsi hakalak otmoq* iborasi

nominatsiyasi ishtahasi juda ochilib yeyish, yoki ichishdan o'zini to'xtata olmaslik deganidir.

Har qanday filning ichki imkoniyatlari shu qadar kengki, unda leksik ma'nosi umuman bo'lmagan, boshqa fillarda tarjimai yoki muqobil varianti topilmaydigan, aynan ma'lum vaziyatlarda-gina ma'nosi tushuniladigan, yoki o'sha vaziyatlardagi holatlarga qo'shimcha dabdabavozlik, ma'no kuchaytirish, nutqiy jarayonga hissiyot qo'shish, ekspressivlikni oshirish ma'nolarini anglatadi. Ushbu turdagi so'zlarni ham agnonimlarning bir turi deb qarasa bo'ladi.

- Masalan, afsungarlik amalini bajarishda *suf-kuf, sim-sim, abadayni-shabadayni, axalayni-shaxalayni* kabi so'zlar ishlatiladi. Bu so'zlarning boshqa fillardagi tarjimai yo'q. Bularni boshqa tilga o'girishda o'sha til millatining mentalitetidan yoki ijtimoiyligidan kelib chiqib muqobilini tanlash kerak. Misol uchun, rus tilidagi xalq ertaklari va spektakllarida afsungarlik amalini bajarishda ishlatiladigan *abraka-dabra* jumlasiga yaxshi tanish. Ushbu so'zlarning asl leksik ma'nosi bugungi kunga kelib noma'lum hisoblanib, bular biror bir g'ayritabiiy harakatni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

“Oh, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, **suf, suf, suf.**” (Xudoyberdi To'xtaboyev, “Sariq devni minib” romanidan)

- Musiqa ohangdorligini oshirish uchun o'zgacha tantanavorlik ruhini beruvchi so'zlar sirasiga *la-la-lay, taram-taram, yalli-yalli, chiki-chiki, ahey-ahey, umbala-qitan, lapala-qitan* va hokazolar kiradi.

- Bolalar folklorining o'ziga xos xalq o'yinlarida ishlatiladigan so'zlar: *atum-batum, enig-benig, aji-kuku, antik-bantik* kabilar.

- Bolalar adabiyotidagi erkalamalar:

Ha do'rsa, do'rsa, do'rsa,

O'yna, belingni ko'rsat.

Yoki

Ha lo'tti, lo'tti, lo'tti,

Dadasi bozor ketdi..

Ushbu parchalardagi *do'rsa* va *lo'tti* so'zlari ham agnonimlarning bir misoli bo'la oladi. Ushbu misralarda faqat ohang ustuvor bo'lib, aniq bir lug'aviy mazmuni noma'lum hisoblanib, bular faqat kishilarga kayfiyat bag'ishlash uchun-gina ishlatiladi.

XULOSA:

Agnonimlar lisoniy birlik hisoblanib, lingvistikaning ko'pgina tarmoqlari bilan bevosita aloqador hisoblanadi. Jumladan, leksikologiya (agnonimlarning aynan ishlatilgan vaziyatidagi mazmuni jihatidan),

dialektologiya (shevaga xos so'zlar, iste'mol doirasi cheklangan, jamiyatning ma'lum qatlami tushunadiganligi jihatidan), frazeologiya (aynan so'zning turg'un birikma tarkibidagi ma'nosi, uning ko'chma ma'nosi jihatidan), morfologiya (so'zlarning takrorlanishi oqibatidagi flektivlik natijasida), stilistika (so'zlarning ishlatilish vaziyati va uslubi jihatidan) qolaversa, folklorshunoslik (turli xil xalq tomoshalari, o'yinlari, ertaklari kabi og'zaki ijod mahsullarida ishlatiladigan maxsus so'zlar jihatidan) bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Xullas, agnonim – bir til vakili uchun boshqa biror tilning qisman yoki butunlay tushunarsizligiga ko'ra yuzaga keladigan “tabiiy” hodisa. Agnonim badiiy matnning lingvopoetik tadqiqida asarning badiiy qimmatini oshiruvchi va til xususiyatlarini to'la namoyon etuvchi birlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “O'zbek tilining izohli lug'ati” ikkinchi jild, “O'zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2020.

2. M. Yo'ldoshev “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 2009.

3. M. Yo'ldoshev “Agnonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi”// “O'zbek tili va adabiyoti” jurnal, 2007-yil, 3-son.

4. Falsafa qomusiy lug'ati, Toshkent – 2004.

5. “O'zbek tilining izohli lug'ati” uchinchi jild, “O'zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2020.

6. “O'zbek tilining izohli lug'ati” beshinchi jild, “O'zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2020.

7. В. В. Морковкин, А. В. Морковкина «Русские агнонимы (слово, которые мы не знаем)». – Москва: АО «Астра семь», 1997.